So'nggi yillarda O'zbekistonda qurilish sohasining jadal rivojlanishi ortidan, fuqarolar va qurilish tashkilotlari o'rtasida turarjoylar bo'yicha turli nizolar kelib chiqmoqda. Ba'zan pudratchi (quruvchi) shartnomaviy majburiyatlarini bajarmay, buyurtmachilar (xaridorlar) zarar ko'rishiga sabab bo'lsa, ba'zan esa buyurtmachi tomonidan to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmay, quruvchi iqtisodiy qiyinchilikka uchraydi. Bunday hollarda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 72-moddasiga asosan nizoni sudga ko'rish jarayonida har bir taraf o'z da'vo yoki e'tirozlarini dalillar bilan asoslashi talab etiladi (Mamasidiqov & Xabibullayev, 2020). Ayniqsa, uy-joy qurilishiga investitsiya qilgan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish masalasi dolzarb bo'lib, so'nggi yillarda normativ hujjatlar (masalan, ulush kiritish asosidagi qurilishni tartibga soluvchi qarorlar) qabul qilinmoqda. Shu sababli uy-joy qurilishiga oid nizolarda isbotlash tartibini chuqurroq o'rganish va ilmiy jihatdan yoritish zarurati mavjud. Maqolaning asosiy maqsadi – uy-joy qurilish shartnomalaridan kelib chiqadigan fuqarolik sud nizolarida isbotlash institutining o'рни va dalillarning huquqiy

ahamiyatini tahlil qilishdir. Shuningdek, sud tomonidan dalillarni baholash mezonlarini aniqlash, dalillarni taqdim etish tartibining amaliy samaradorligini ko'rsatish va adolatli qaror qabul qilish jarayonida isbotlash qoidalarining ahamiyatini ochib berish maqolaning ustuvor vazifalaridan sanaladi. Uy-joy qurilish shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarda isbotlash masalalari milliy qonunchilik va sud amaliyotida atroflicha yoritilgan. Fuqarolik va Fuqarolik protsessual kodekslari shartnomaviy majburiyatlar hamda dalillarni taqdim etish tartibini belgilab beradi. Oliy sud Plenumining 2020-yildagi qarorida dalillarni yig'ish va baholash qoidalari tizimlashtirilgan, Prezidentning 2020-yilgi qarori esa ulush asosida qurilishda ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Qurilish pudrati nizolariga oid plenum qarorlari qonunlarni qo'llash mexanizmini aniqlashtirgan, ommaviy axborot vositalarida esa amaliy muammolar, xususan, xaridor manfaatlarini himoya qilishdagi bo'shliqlar ko'rsatilgan. Sud ekspertizasi bo'yicha metodik tavsiyalar texnik xulosalarning daliliy ahamiyatini ochib beradi. Professor O. Pirmatovning (2020) ilmiy ishida esa elektron dalillarning sud jarayonidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy-joy qurilishiga oid nizolarda isbotlash jarayoni murakkab bo'lib, dalillarni to'g'ri taqdim etish va ularni qonuniy baholash adolatli sud qarorlarini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Asosiy qism

Fuqarolik sud jarayonida isbotlash deganda, taraflar o'z da'vo yoki e'tirozlarini asoslayotgan holatlar hamda ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday holatlarning mavjudligi yoki yo'qligini sud belgilangan tartibda aniqlashi tushuniladi (Ochqulov, 2012). Huquqshunos olim E. Egamberdiyevning (2007) fikriga ko'ra, ma'lum huquqlarga ega bo'lgan shaxs o'ziga tegishli huquqlarni qonunda belgilab qo'yilgan tartibda belgilab berish va uni

amalg oshirish uchun asos bo'lgan holatlarni tegishli dalillarga tayangan holda isbotlab, asoslamasdan turib, o'ziga tegishli huquqlarni amalga oshirolmaydi. Ayrim huquqlarning haqiqatan ham shaxslarga tegishli ekanligini belgilovchi faktlar, albatta, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni isbotlashga xizmat qiluvchi dalillar negizida tekshirilib, isbotlanishi kerak.

Isbotlash jarayoni fuqarolik protsessual qonunchilikda umumiy qoidalarga bo'ysunadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 72-moddasiga muvofiq, har bir taraf o'zining da'vo talablari yoki e'tirozlarini asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashga majburdir. Ya'ni sudda da'vo qo'zg'atgan shaxs (da'vogar) o'z talabining asoslari to'g'risidagi dalillarni keltirishi lozim. Javobgar esa da'vogarning talablarini rad etishga doir asoslar mavjudligini (yoki da'vogarning bayon etgan holatlari mavjud emasligini) isbotlashi kerak bo'ladi. Isbotlash va dalillarni taqdim etish majburiyati umumiy tartibda taraflarga yuklatilgan bo'lib, sud faqat ishning holatlarini har tomonlama tekshirib, huquqiy baho beradi.

Shu bilan birga, qonunchilikda ayrim toifadagi ishlar uchun isbotlash yukini taqsimlashga doir maxsus qoidalar belgilangan bo'lib, ular umumiy qoidadan istisno hosil qiladi. Masalan, Mehnat kodeksida mehnat nizolarida ish beruvchiga ayrim holatlarni isbotlash majburiyati yuklatilgani, yoki Fuqarolik kodeksining 985-moddasiga muvofiq zarar yetkazishda aybsizlikni isbotlash javobgar zimmasida ekani qayd etilgan (Pirmatov, 2020). Biroq uy-joy qurilishi shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar uchun maxsus qonuniy istisnolar yo'q, odatda umumiy fuqarolik-protsessual qoida amal qiladi. Demak, pudrat shartnomasi bo'yicha bahs yuzaga kelsa, buyurtmachi-da'vogar pudrat-chining majburiyatini lozim darajada bajar-maganini isbotlashi (masalan, shartnomani va unda belgilangan muddat o'tib ketganini, qurilish haligacha bitmaganini tasdiqlovchi

hujjatlarni taqdim etishi) zarur. Aksincha, agar pudratchi bajarilgan ishlar uchun to'lov undirish talabi bilan sudga murojaat qilsa, u avvalo ishni amalga oshirib, buyurtmachiga topshirganini isbotlashi kerak bo'ladi (buning uchun bajarilgan ishlar dalolatnomasi, obyektini topshirish-qabul qilish akti, pudrat ishlari smetasi va boshqa hujjatlar dalil bo'lib xizmat qiladi). Sud ushbu holatlarni aniqlash jarayonida taraflarning taqdim etgan dalillarini qonun doirasida tekshiradi va baholaydi.

Isbotlashning muhim prinsiplari – dalil-larning aloqadorligi va maqbulligi – qurilish nizolarida ham xuddi boshqa fuqarolik ishlari kabi qo'llaniladi. Aloqadorlik prinsipi shuni anglatadiki, faqat ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan, nizoning mazmuniga aloqador holat-largina dalil sifatida qabul qilinadi (Ochqulov, 2012). J.D. Axmedovning (2021) ta'rifiga ko'ra, dalilning aloqadorligi u ishga oid faktlarni tasdiqlashi, rad etishi yoki shubha ostiga olishi bilan belgilanadi va har bir dalil "kamida bitta da'vo yoki e'tirozga aloqador bo'lishi" zarur. Maqbullik esa dalilning qonuniy yo'l bilan olinganini anglatib, sud dalil to'plangan-da shaxslarning huquqlari buzilmaganligini va protsessual qoidalar bajarilganligini tekshiradi. Shuning uchun sudya dalil ustidan qaror qabul qilishda ularning aloqadorligi va maqbulligini birgalikda ko'radi.

Maqbullik prinsipi esa dalillarning qonu-niy yo'l bilan qo'lga kiritilgan bo'lishini talab qiladi. FPKning 74-moddasiga ko'ra, kelib chiqishi noma'lum hujjatlar yoxud qonunni buzgan holda olingan ma'lumotlar sudda dalil sifatida qabul qilinmaydi (Mamasidiqov, 2020). Demak, qurilish bilan bog'liq ishda taraflar faqat rasmiy tartibda olingan va qonuniy kuchga ega hujjatlar, ko'rsatmalar va xulosalar bilan isbotlash faoliyatini olib borishlari mumkin. Masalan, agar buyurtmachi qurilish sifati yomonligini yashirin ravishda olingan audioyozuv bilan isbotlamoqchi bo'lsa, bunday yozuv protsessual talabga xilof ravishda olingan bo'lsa, maqbul dalil bo'la olmaydi. Aksincha, u mutaxassislarning rasmiy

ekspertiza xulosasi kabi qonuniy dalil vositalariga tayanishi lozim bo'ladi. Qurilish bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud-ekspert xulosalari ustida ishlayotgan A.T. Xaydarov (2024) ham bu tamoyillarni amaliyotga tatbiq qilish zarurligini ko'rsatadi. U qurilish-texnikaviy ekspertiza yakunlarini baholashda: "Dalillarga baho berish, protsessual qonun talablariga muvofiq, dalillar aloqadorligi va maqbulligi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega", – deb yozadi. U sud ekspertizasini tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga huquqiy baho berish jarayonida sudya va tayinlovchi organ xodimlarining mas'uliyati yuqori bo'lishi kerakligini ta'kidlash orqali, qurilish nizolari uchun ham aloqadorlik va maqbullik prinsiplarining beqiyos ahamiyatini ko'rsatadi.

Sudda isbotlash jarayonida, agar nizoni hal qilish uchun zarur ba'zi holatlar taraflar tomonidan keltirilmasa ham, sud ularni aniqlashga va muhokamaga qo'yishga haqlidir (Xabibullayev, 2023). FPK 72-moddasining ikkinchi qismida ish uchun ahamiyatga ega holatlarni aniqlash va ularni muhokama qilish sudning vazifasi ekanligi, hatto taraflar bu holatlarni keltirmagan bo'lsalar ham, sud ularni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozimligi belgilangan (Yodgorov, 2016). Ushbu qoidaning qurilish nizolariga tatbiqi shuni anglatadiki, masalan, sud jarayonida taraflar e'tibordan chetda qoldirgan, lekin obyekt sifati yoki shartnoma shartlarini baholash uchun muhim bo'lgan biron holat (masalan, qurilish materiallarining sertifikatsizligi yoki loyiha-smeta hujjatlarining tasdiqlanmaganligi) aniqlansa, sud bu holatga e'tibor qaratishi va tegishli dalillarni talab qilishi mumkin.

Fuqarolik protsessida dalillar tushunchasi keng qamrovli bo'lib, qonunchilik ish bo'yicha isbot vositalarining aniq ro'yxatini beradi (Kurbanov, 2025). FPKning 71-moddasiga muvofiq, fuqarolik ishida dalillar taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, yozma, ashyoviy va raqamli dalillar, shuningdek, ekspertlar

xulosalari va mutaxassislarning maslahatlaridan iborat bo'lishi mumkin. Quyida uy-joy qurilishi shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarda eng ko'p uchraydigan dalil turlari va ularning o'rni tahlil etiladi.

Qurilish shartnomasi bilan bog'liq nizolarda yozma hujjatlar asosiy va eng ishonchli dalil manbai bo'ladi (Rasulova, 2024). Avvalo, taraflar o'rtasida tuzilgan shartnoma hujjatining o'zi muhim yozma dalildir – unda taraflarning huquq va majburiyatlari, ish bajarish muddati, narxi kabi nizoning hal etilishi uchun asos bo'ladigan shartlar aks etadi. Agar shartnoma yozma shaklda tuzilgan va notarial tasdiqlangan bo'lsa (masalan, ko'chmas mulk oldi-sotdisida shart), sud ushbu hujjat mazmuniga katta ahamiyat beradi. Shuningdek, qurilish jarayonida tuzilgan qarorlar va dalolatnomalar (masalan, qabul qilish-topshirish akti, ish hajmlari bajarilganligi dalolatnomasi, loyiha-smeta hujjatlari, hisob-fakturalar) yozma dalillar turkumiga kiradi va nizoni isbotlashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Yozma dalillar qatoriga taraflar o'rtasidagi rasmiy yozishmalar (maktublar, talabnomalar), bank hujjatlari (to'lov topshiriqnomalari, kvitansiyalar) va boshqa tegishli hujjatlar ham kiradi. Hozirgi kunda ko'plab hujjatlar elektron shaklda tayyorlanayotgani sababli, ularni sudga taqdim etishda qonunchilikda belgilangan tartibga rioya etish muhimdir (masalan, elektron hujjatning haqiqiylikni tasdiqlash uchun elektron raqamli imzo bo'lishi talab etiladi).

Zamonaviy sud amaliyotida elektron dalillarning ahamiyati ortib bormoqda. FPKga 2018–2021-yillarda kiritilgan o'zgartishlarga binoan, elektron ma'lumotlar va raqamli dalillar alohida isbot vositasi sifatida tan olingan. Uy-joy qurilishi bilan bog'liq nizolarda elektron dalillar sifatida taraflarning elektron yozishmalari (e-mail xabarlar, SMS yozishmalar, messenjerlarda olib borilgan muloqotlar), elektron to'lov kvitansiyalari, qurilish jarayonini kuzatuvchi onlayn tizimlardan olingan ma'lumotlar, fotosurat va video yozuvlar

(agar ular ishga aloqador bo'lsa) keltirilishi mumkin (Pirmatov, 2023).

Qurilish nizolarida guvohlar ko'rsatmalari yordamchi dalil sifatida paydo bo'ladi. Odatda, taraflar o'zaro munosabatlarini yozma shartnoma va hujjatlar bilan mustahkamlashga intilishadi, shu bois guvoh ko'rsatmalari asosiy dalil o'rnida kamroq uchraydi. Biroq ayrim holatlarda guvoh ko'rsatmalari muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Guvoh – bu ish holatlari haqida bevosita xabardor bo'lgan, sudda so'roq qilinadigan shaxsdir. FPKning 82–83-moddalariga muvofiq, taraflar sudga guvohlarni chaqirishni so'rash huquqiga ega. Guvoh ko'rsatmalari yozma dalillar mavjud bo'lmaganda yoki ularni to'ldirish zarur bo'lganda qo'l keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar qonun bitim uchun majburiy yozma shaklni talab qilsa (masalan, yirik so'mmali shartnoma yozma tuzilishi lozim), bunday bitim mavjudligini guvohlar bilan isbotlashga yo'l qo'yilmasligi mumkin – bu ham dalillarning maqbulligi prinsipi bilan bog'liq cheklovdir. Shu sabab, guvoh ko'rsatmalari asosan yordamchi rol o'ynaydi va yozma isbot vositalari bilan ziddiyatga kirishmasligi lozim.

Qurilish bilan bog'liq nizolarda sud ekspertizasi ko'pincha hal qiluvchi dalil manbai bo'lib xizmat qiladi. Chunki ko'plab tortishuvlar mutaxassis bilimini talab qiladigan texnik masalalarga borib taqaladi: qurilish sifatining me'yorlarga muvofiqligi, qurilgan obyekt qiymati, nuqsonlarning sabablari, materiallarning standarti va hokazolar. Fuqarolik protsessida taraflar iltimosnomasiga ko'ra, yoki sudning o'zi tashabbusi bilan ish bo'yicha ekspertiza tayinlanishi mumkin (2019). Masalan, agar buyurtmachi da'vo arizasida *“qurilish ishlari loyiha-smetaga nomuvofiq va sifatsiz bajarilgan”* deb asos keltirsa, sud buni oddiy hujjatlar bilan aniqlay olmasligi mumkin. Bunday holda qurilish-texnik ekspertiza tayinlanib, mustaqil ekspert mutaxassislar obyektini ko'zdan kechiradi va o'z xulosasini beradi. Ekspert xulosasida, masalan, bino

necha foiz tayyor ekani, sifat qaysi darajada ekanini tahlil qilib, normativ talablarga nomuvofiq nuqsonlar sanab o'tilishi mumkin. Keyinchalik sud ushbu xulosani boshqa dalillar bilan birgalikda baholaydi va qaror chiqarishda unga tayansa, hal qiluv qarorida ekspert xulosasiga havola keltiradi. Ekspertiza xulosasi mustaqil dalil bo'lib, sud uchun majburiy kuchga ega emas – sud uning to'g'riligi va asoslanganligini tekshirib, boshqa dalillar bilan solishtirib ko'radi. Zarur bo'lsa, sud qo'shimcha yoki takroriy ekspertiza tayinlashga haqli. Uy-joy qurilishi nizolarida keng tarqalgan ekspert turlari – qurilish-texnika ekspertizasi, smeta hisob-kitob ekspertizasi, ba'zan qurilish-moliyaviy ekspertiza (xarajatlarni asoslanganligini aniqlash uchun) va loyiha hujjatlarini texnik ekspertiza qilishdir.

Yuqorida sanalganlardan tashqari, FPK 71-moddasida qayd etilganidek, taraflar va uchinchi shaxslarning suddagi tushuntirishlari ham dalillar sifatida qabul qilinadi. Ya'ni har bir taraf sudda o'z da'vosi yoki javobini asoslab og'zaki yoki yozma tushuntirish berishi va unda ish holatlarini bayon qilishi mumkin. Bu tushuntirishlar ham ish materiallariga kiritilib, boshqa dalillar bilan birga baholanadi. Shuningdek, ashyoviy dalillar – masalan, qurilish materiali namunalari, buzilgan qurilish konstruksiyasining qismi, fototasvirlar ham dalillar turkumiga kiradi, garchi qurilish nizolarida ular kamroq qo'llanilsa-da. Masalan, qurilishda qo'llangan beton namunasini sinovdan o'tkazish uchun sud uni ashyoviy dalil sifatida qabul qilishi va laboratoriya tekshiruvi uchun yuborishi mumkin. Mutaxassisning maslahati (tushuntirishlari) ham qonunda alohida dalil turi sifatida tilga olinadi. Bu ekspert emas, lekin maxsus bilimga ega shaxs ko'rsatmasidir. Qurilish ishlariga doir masalada sud majlisiga jalb etilgan qurilish bo'yicha maslahatchi o'z fikrini bildirishi mumkin, bu ham yozib qo'yiladi va baholashda hisobga olinishi mumkin.

Yuqoridagi dalil turlarining barchasi uy-joy qurilishi bo'yicha sud tortishuvlarida

muayyan o'rin tutadi. Eng ko'p uchraydigani yozma hujjatlar va ekspertiza xulosalari bo'lsa, elektron dalillar va guvoh ko'rsatmalari ham axborot texnologiyalari rivojlangan sari ortib bormoqda. Muhimi, sud har qanday dalilni qonuniylik, haqqoniylik va aloqadorlik nuqtayi nazaridan sinchiklab tekshiradi. Dalillar ishonchli manbalardan olingan bo'lishi, bir-birini to'ldirishi yoki tasdiqlashi muhim. Agar dalillar bir-biriga zid bo'lsa, sud ularni o'z ichki ishonchi bilan qaysi biriga ko'proq ishonish lozimligini hal etadi.

Uy-joy qurilishi bilan bog'liq nizolar sud amaliyotida turli shakllarda namoyon bo'lmoqda. Masalan, O'zbekistonda so'ngi yillarda ko'p qavatli uylar qurilishida ulushdor sifatida pul kiritgan fuqarolarning manfaatlari poymol etilgan ayrim holatlar kuzatildi. Masalan, Xorazm viloyatida ro'y bergan bir ishda quruvchi tashkilot rahbari qurilayotgan ko'p qavatli uyning 36 ta xonadonini oldindan 67 nafar fuqaroga sotgan, ya'ni bitta xonadon uchun bir necha kishi bilan shartnoma tuzib, ularning pulini olgan. Natijada qurilish oxiriga yetkazilmay qolgan, to'plangan mablag'lar esa boshqa maqsadlarga yo'naltirilib yuborilgan (talon-toroj qilingan). Bu holat yuzasidan quruvchi rahbariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, sudda uning aybi isbotlandi. Sud hukmida jabrlanuvchilarning jami soni 114 nafar ekani, yetkazilgan moddiy zarar 17 milliard so'mdan oshgani qayd etilgan (Safarov, 2023). Ushbu misol jinoiy javobgarlikka oid bo'lsa-da, mazkur vaziyatga parallel ravishda jabrlanuvchilar o'z mulk huquqlarini tiklash yoki pullarini qaytarish uchun fuqarolik tartibida ham da'vo arizalari kiritadilar. Bunday fuqarolik ishlarida isbotlash alohida murakkab bo'lishi mumkin, chunki bir xonadon atrofida bir nechta da'vogar da'vo qo'zg'atadi va sud har birining huquqini individual baholashi lozim bo'ladi. Dalil sifatida ular quruvchi bilan tuzilgan ulushli ishtirok shartnomalari, to'lov hujjatlari, qurilishning tugallanmaganini tasdiqlovchi ekspertiza xulosalari, shuning-

dek, jinoyat ishidagi ma'lumotlardan ham foydalanishlari mumkin (agar ular oshkor qilingan va fuqarolik ishiga taqdim etishga ruxsat etilgan bo'lsa). Sud esa o'z navbatida, fuqarolik ishini ko'rib, agar quruvchi tomonida mol-mulk yoki tugallanmagan obyekt bo'lsa, uni sotish va ulushdorlar zararini qoplash mexanizmlarini qo'llashi mumkin. Bu kabi ishlar sud amaliyotida yangi normativ baza – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-sonli "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan ulushli qurilish to'g'risidagi nizom – asosida ko'rib chiqilmoqda, unda ulushdorlarning huquqlarini himoya qilish kafolatlari belgilangan.

Yuqoridagi misol shuni ko'rsatadiki, uy-joy qurilishi bilan bog'liq nizolarda har bir taraf o'z haqliligini isbotlash uchun turli dalil vositalariga tayanadi. Keltirilgan dalillar qonuniy va ishga aloqador bo'lsa, sud ularni qabul qiladi, aks holda rad etadi.

Dalillarni baholash – sudning eng muhim vakolatlaridan biri bo'lib, unda sud ishdagi barcha dalillarni o'z ichki ishonchi va qonunga binoan tahlil qilib, ular asosida xulosa chiqaradi. Fuqarolik protsessual kodeksi-ning 80-moddasiga muvofiq, sud ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlarni sud majlisida har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirgandan so'ng, dalillarga o'z ichki ishonchiga asoslanib baho beradi.

Sud dalillarni baholashda qonuniy tafakkurga tayangan holda quyidagi tamoyillarga amal qiladi: dalillarning yetarliligi, ishonchliligi, o'zaro bog'liqligi va huquqiy ahamiyati. Hech bir dalil sud uchun avvaldan belgilangan kuchga ega emasligi qonunda alohida qayd etilgan: FPK 80-moddasining to'rtinchi qismiga ko'ra, hech bir dalil oldindan hal qiluvchi kuch sifatida e'tirof etilmaydi. Demak, masalan, faqat bitta tarafning ko'rsatuvi yoki faqat bitta hujjatning mavjudligi bilan sud ishni hal qilmasdan, balki barcha dalillarni

birgalikda tahlil qiladi. Agar biron dalil ishning haqiqiy holatlariga muvofiq bo'lsa va boshqa dalillar bilan tasdiqlansa, sud uni qabul qiladi. Aksincha, dalil ish holatlariga zid bo'lsa yoki ishonchsiz bo'lib chiqsa, sud uni rad etishi mumkin.

Sudning dalillarni baholashi – bu dalillarga huquqiy va mantiqiy xulosa chiqarish jarayonidir. Uy-joy qurilishi nizolari singari murakkab ishlar ko'rilganda, sudya har bir dalilga alohida va dalillar yig'indisiga birgalikda baho berishi lozim. Sudning ichki ishonchi sudyaga ish holatlarini baholashda erkinlik bersa-da, bu erkinlik mutlaqo subyektivlik emas, balki qonuniy mezonlar doirasidagi erkinlikdir. Sudya dalillarni baholashda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun qonunchilikda belgilangan to'liq va har tomonlama tekshirish talabiga rioya qilishi zarur. Professor D.Y. Xabibullayev Fuqarolik protsessual kodeksining 73-moddasiga tayanib: "Sud faqat ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan dalillarnigina ko'rishga qabul qiladi", – deb yozadi. Shuningdek, u dalillarning aloqadorligini aniqlash sudyaning ichki ishonchi bilan bog'liq bo'lib, ish uchun ahamiyatga ega bo'lmagan dalillarni va qonuniy isbot vositasi bo'la olmaydigan ma'lumotlarni qabul qilishga yo'l qo'yilmasligini ta'kidlaydi (Xabibullayev, 2023). Bundan tashqari, Oliy sud Plenumining tegishli qarorlarida ta'kidlanishicha, sud har bir ish bo'yicha qaror chiqarganda ish uchun muhim bo'lgan barcha dalillarni qarorda sanab o'tishi, ular qay darajada isbotlangan yoki rad etilganini asoslab berishi lozim (Ochqulov, 2012). Aks holda, ya'ni agar sudning dalillarni baholashi sust bo'lib, muhim bir dalil e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri talqin qilinsa, yuqori sud instansiyasi bunday qarorni bekor qilishi mumkin (protsessual qonunchilikka ko'ra, dalillarni noto'g'ri baholash – bu apellyatsiya yoki kassatsiyada qarorni bekor qilish yoki o'zgartirishga asos bo'lishi mumkin).

Uy-joy qurilishi bo'yicha nizolarda sudning dalillarni baholash vakolati ayniqsa

muhim, chunki ko'pincha ish taqdirini bitta ekspert xulosasi hal qilishi mumkin. Sudya esa yakka bir dalilga tayanib qolmasdan, barcha dalillarning bir-biriga mos kelishini tekshiradi. Shunday qilib, dalillarni baholash suddan yuksak professionallik va xolislikni talab qiladi. Sudlar uchun dalillarni baholash bo'yicha yo'riqnomalar berilgan. Hech bir dalil (masalan, faqat guvoh ko'rsatmasi yoki faqat bir tomonning bayonoti) yakka holda ishning to'liq isbotlanganini anglatmaydi. FPKning 80-moddasi suddan har taraflama, to'liq va xolis ko'rib chiqishni talab qiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, isbotlash jarayonida amaliyotda bir qator muammolar kuzatilmoqda. Xususan, taraflar dalillarni o'z vaqtida taqdim etmasligi sud ishlarining cho'zilishiga olib kelmoqda, qarshi taraf yoki uchinchi shaxs qo'lida bo'lgan muhim hujjatlarni talab qilib olish tartibi esa yetarli darajada samarali emas. Ayrim hollarda dalillar yashirilishi yoki yo'q qilinishi holatlari ham uchrab turadi, biroq bunday xatti-harakatlar uchun aniq va qat'iy javobgarlik mexanizmlari qonunchilikda to'liq mustahkamlanmagan. Amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksi sudlarga dalillarni faqat taraflarning iltimosnomasiga asosan to'plash vakolatini beradi, bu esa uy-joy qurilishi kabi ijtimoiy ahamiyatli nizolarda adolatli qaror qabul qilinishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois mazkur institutni takomillashtirish zarur. Avvalo, dalillarni o'z vaqtida va to'liq taqdim etish majburiyatini mustahkamlash hamda uzrsiz kechiktirilgan dalillarni qabul qilmaslik mexanizmini joriy etish lozim. Shuningdek, sudning qarshi taraf yoki uchinchi shaxslardan muhim hujjatlarni tezkorlik bilan talab qilib olish vakolatini kuchaytirish, dalillarni yashirish yoki yo'q qilish uchun jarima va boshqa huquqiy oqibatlarni, jumladan, "noxush xulosa chiqarish" qoidalarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Uy-joy qurilishi shartnomalariga oid nizolar O'zbekiston fuqarolik sud amaliyo-

tida alohida o'rin egallaydi. Bunday nizolar nafaqat taraflarning mulkiy manfaatlarini, balki jamiyatda mulk huquqining daxlsizligi va shartnoma intizomini ta'minlash bilan ham bevosita bog'liq. Shu sababli sudlar tomonidan bu turdagi ishlarni ko'rishda isbotlash va dalillarni to'g'ri qo'llash masalasi dolzarb hisoblanadi. Sud qarorlarining qonuniy va adolatli chiqishi bevosita dalillarning qanchalik puxta yig'ilganligi, tahlil qilinganligi va ularning qonunda belgilangan tartibda baholanishiga bog'liq.

So'nggi yillarda fuqarolik protsessual qonunchiligimiz izchil ravishda takomillashmoqda. Jumladan, elektron dalillar, raqamli hujjatlar, axborot texnologiyalaridan foydalanilgan yozishmalar hamda boshqa zamonaviy isbot vositalarining qonunchilikka kiritilishi sudlarda isbotlash jarayonini ancha yengillashtirdi. Bu, o'z navbatida, taraflarning huquqlarini teng himoya qilish, sud jarayonida oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash imkonini bermog'.

Qurilish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda investitsion muhitning barqarorligi, xususiyl mulk daxlsizligi va tadbirkorlarning huquqiy kafolatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun uy-joy qurilishi bilan bog'liq shartnomaviy nizolarning sudlarda qonuniy va asosli hal qilinishi investorlar ishonchini mustahkamlaydi, aholining mulkiy huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi va umuman, huquqiy davlat hamda adolatli jamiyat qurish jarayonida muhim o'rin tutadi.

Shunday ekan, isbotlash va dalillar institutining samarali ishlashi odil sudlovning asosiy omillaridan biri sifatida doimo e'tibor markazida bo'lishi lozim. U nafaqat sud amaliyotini, balki jamiyatdagi huquqiy madaniyatni ham rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu bois ushbu institutni takomillashtirib borish, sud amaliyotida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, sudyalarning malakasini oshirish hamda huquqiy ongni yuksaltirish masalalari kelgusida ham dolzarbligicha qolaveradi.

REFERENCES

1. Axmedov, J. D. (2021). Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda dalillarni baholashning protsessual masalalari [Procedural issues of evidence assessment in civil cases in court]. [PhD Dissertation] (p. 189). Tashkent.
2. Egamberdiyev, E. (2007). Fuqarolik yarashuvidagi muammolari [Problems in civil reconciliation]. [Doctoral Dissertation] (p. 235). Tashkent.
3. Esanova, Z. N., Xabibullayev, D. Y. & Salimova, I. M. (2015). Fuqarolik ishlarini sudda kurishda isbotlash va isbot [Evidence and proof in civil cases in court]. (p. 181.). [Monograph]. Tashkent: Lesson Press Publ.
4. Kurbonov, S. I. (2025). Fuqarolik protsessida ashyoviy dalillarni jalb qilish va baholash tartibi va usullari [Procedure and methods for attracting and evaluating material evidence in civil proceedings]. Obrazovanie, nauka i innovatsionnye idei v mire [Education, Science and Innovative Ideas in the World], 70(7), 46–52. <https://inlibrary.uz/index.php/esiiv/article/view/109846>
5. Mamasidiqov, M. M., & Xabibullayev, D. Y. (2020). Fuqarolik protsessual qoidalari [Civil Procedure Rules] (p. 607). Tashkent: Lesson Press Publ.
6. National Research Moscow State University of Civil Engineering. (2019). Forensic Construction, Technical, and Cost Expertise: Current Issues and Solutions. Moscow: MISI-MGSU Publ. <http://mgsu.ru/resources/izdatelskaya-deyatelnost/izdaniya/izdaniya-otkr-dostupa>
7. Ochqulov, O. (2012). Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism [Civil procedural law. General part] (p. 516). Tashkent: TSIL Publ.

8. Pirmatov, O. Sh. (2020). Iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishda elektron dalillarning protsessual jihatlari [Procedural aspects of electronic evidence in economic and civil litigation]. [PhD Dissertation] (pp. 12–25). Tashkent.
9. Pirmatov, O. (2023). Problems of evaluation of digital evidence based on blockchain technologies. *Notes and Reflections in Janus.net, e-journal of international relations*, 14(1). <https://doi.org/10.26619/1647-7251.14.1.01>
10. Rasulova, S., & Abdunabiyev, A. (2024). Qurilishning tashkiliy shakllari [Organizational forms of construction]. *Nauka i innovatsii* [Science and Innovation], 2(37), 116–121. <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/61728>
11. Safarov, D. (2023, iyul). *Sarob uchun to'lov – O'zbekistonda uy-joy xaridorlarini qanday himoya qilish mumkin?* [Paying for a Mirage: How to Protect Homebuyers in Uzbekistan?].
12. Siraziyeva, E. (2020). *Ulush kiritish asosida qurish masalalari tartibga solindi* [Issues of Construction Based on Shared Participation Have Been Regulated]. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/ulush_kiritish_asosida_qurish_masalalari_tartibga_solindi
13. Xaydarov, A. T. (2024). *Sud-qurilish-texnikaviy ekspertiza o'tkazishning xususiyatlari* [Features of conducting a forensic construction and technical examination]. <https://sudex.uz/?p=6399>
14. Xabibullayev, D. Y. (2023). *Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar)* [Civil procedural law (questions and answers)] (p. 336). Tashkent: TSUL Publ.
15. Yodgorov, X. (2016). *Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi* [Procedure for filing a civil lawsuit] (p. 224). Tashkent: Baktria Publ.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 5-SON

VOLUME 5 / ISSUE 5 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.5.